



## IJTIMOIIY TARMOQLARDA KUTUBXONALARNI TARG'IB QILISH USULLARI VA ZAMONAVIY MUTOLA TARG'IBOTI

**Ergasheva Gulsevar**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kutubxona-axboroti  
faoliyati fakulteti 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar orqali kutubxonalarni targ'ib qilish, mutola madaniyatini zamonaviy shakillantirish usullari hamda bu borada duch kelinadigan muammolar, samarali strategiyalar haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kutubxona, ijtimoiy tarmoqlar, kontent, post, dizayn, foydalanuvchi, auditoriya, kitobxon.*

Zamonaviy texnologiyalar, raqamli tizimlar va maxsus saytlarning rivojlanishi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Insonlarning bilim olish, muloqot qilish, axborot almashish va qabul qilish usullari ham tubdan o'rganilib, takomillashib bormoqda. Avvallari kutubxonalar bilim olish va yagona ma'lumot manzili hisoblangan. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari cheksiz ma'lumot olish, foydalanish imkoniga ega. Shu sababi kutubxonalar zamonaviy va axborot asrida o'z o'rnini saqlab qolishi va jamiyat oldida kitobxonlarini yo'qotmaslik uchun raqamli texnologiyalardan keng va faol foydalanishi zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar - bu nafaqat shaxshiy muloqot yoki ko'ngilochar maydon, balki, ta'lim olish, ilmiy izlanishlar va madaniy merosni ommalashtirishning ham samarali yo'lidir. Chunki platformalar, saytlar, ijtimoiy tarmoqlar kutubxona va kutubxona xizmatlarini reklama qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari kitobxonlar bilan doimiy onlayn aloqa o'rnatish, reklama va taqdimotlar orqali yangi foydalanuvchilarni jalb etishga beminnat yordam beradi.

Kutubxonaning ijtimoiy tarmoqlarda faolligini kitobxonlar va qiziquvchilar soni baholaydi. Kitobxonlarning an'anaviy shaklda kutubxonaga borib kitob mutola qilishi, kerakli ma'lumotlarni kitob, gazetalar orasidan axtarishlari oxirgi 5-6 yillikda keskin kamaydi hatto, bu holat kamayib bormoqda desak ham bo'ladi. Nega-ki, zamon jadallik bilan rivojlanib, ma'lumot bazalari tezkor faoliyat yuritmoqda. Endilikda kutubxona va kutubxonachilarning asosiy vazifasi kitobxonlarga onlayn va oflayn ishonchli axborotni yetkazib, kitob, kutubxona va o'z zimmasidagi faoliyatni zamonaviy talqinda ko'rsatib berish hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayonni yanada tez va soddalashtirib beradi. Masalan: Foydalanuvchilarga axborot yetkazish xizmat turini olaylik. Yangi elektron va bosma nashr kitoblar, ko'rgazmalar, onlayn tadbir va tanlovlar orqali kutubxona o'z auditoriyasini yig'ati. Keyingi masala shu auditoriyani saqlab, foydalanuvchilarga samarali xizmat ko'rsatish. Shunday qilib kutubxonaga qanday kitoblar kelgani va yana bir qancha kutubxona xizmatlarida auditoriya xabardor muntazam bo'ladi. Ilgari bu kabi faoliyat





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yuritishni imkoni bo'lmagan, ayrim xizmat turlari ham shular jumlasidan. Mavjud bo'lganlaridan ham foydalanish uchun kutubxonaga borish shart edi. Hozirgi kunda kutubxona xizmat turlari ko'paydi, foydalanuvchilar esa kutubxonaga borib yoki ishda, o'qishda va qator vaziyatlarda onlayn axborot olishlar ham yo'lga qo'yilmoqda. Kutubxonalar va kitob targ'iboti, mutola madaniyatini jamiyatda shakillantirishning zamonaviy usullari bu - zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Bularga yuqorida sanab o'tgan turlar orqali fikr almashish, targ'ibod-tashviqod ishlarida hamda ta'lim sohasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kunlik yangiliklar, tadbirlar va elektron lataloglar bilan kutubxonaning veb sayтини yuritish, kutubxonalarni ijtimoiy tarmoqlarda sahifa ochish, ochilgan profil uchun kreativ dizayn, logotip tanlash, postni chiroyli shriftlarda tartibli joylash, mavzuga mos heshteglardan foydalanish samarali usullardan biridir. Reklama va taqdimotlar tayyorlash, kutubxona xizmat turlari haqida ma'lumotlar joylab borish shular jumlasidandir. Sahifadan foydalanib onlayn aksiyalar, viktorinalar, kitob tavsiyalari, so'rovnomalar tashkiliq etish hamaqsadga muvofiq. Motivatsion va madaniy postlarni profilga joylashtirish ham foydalanuvchilar e'tiborini tortishi yoki yangi kitobxonlar paydo bo'lishiga ham yordam beradi. Foydalanuvchilarni tarmoq sahifasida faol ishtirokini ta'minlash uchun kunlik savol-javoblar, kichik ammo keng qamrovli viktorinalar, kitob iqtiboslari va so'rovnomalarini joylash, yo'lga qo'yilishi shart bo'lgan g'oyalarni samarali va tez fursatda amalga oshishiga yordam beradi. Bu orqali sahifaga va kutubxonaga bo'lgan qiziqish ortadi, kitobxonlar esa o'zlarini kutubxonaning bir bo'lagi sifatida ko'radi. Kutubxona sahifasida sifatli faoliyat olib borish uchun kreativ va o'zgacha kontentlar rejasini ham tuzib chiqish juda katta ahamiyatga ega. Hozirda zamonaviy taraqqiyot foydalanuvchilari qisqa ammo ta'sirli, g'ayraoddiy, boshqa kontentlarda ko'p takrorlanmagan mavzu va dizayndagi materiallarni kuzatib borishadi. Shu jumladan, kutubxona postlari qisqa matnli, sifatli rasm va foydali mavzuga mos havolalar bilan boyitilishi zarur. Agar postlar shu tartibda sifatli va muntaz sahifaga joylab borilsa, bu auditoriyaning ishonchini oshiradi. Tadbir kunlarida, tarixiy sanalarda joylangan ko'rgazma va postlar keng jamoatchilik e'tiborini tortadi. Foydalanuvchilarga axborot berish bilan birga milliy qadryatlar, tarixiy voqealar haqida ham tasavvurlari kengayadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Zulfiyaxonim kabi shaxslar, jadidlar hayoti, shoir va yozuvchilar haqida shaxsiy va ijodiga tegishli kontentlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bundan tashqari, mashhur shoir yozuvchilar, davlat arboblari, mutafakkirlarning hayotiy iqtiboslari, mutolaga undovchi so'zlarni joylash, onlayn tadbirlar va jonli efirlar shular jumlasidandir. Bilamiz-ki, kutubxonalarda ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar ham ko'plab kitobxonlarga ijobiy ta'sir qiladi. Kutubxonada „Eng faol mutolachi“, „Yil kitobxoni“, „Eng yaxshi oilaviy kitobxonlar“ kabi tanlovlarni tashkil qilish esa foydalanuvchilarni kitob va kutubxonaga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Ko'plab xorijiy kutubxonalar o'z auditoriyasini saqlab qolish uchun „Onlayn o'qish marafonlari“ ni





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yo'lga qo'ygan. Respublikamiz kutubxonalarida ham shunday kreativ g'oya va tashabbuslarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, har bir ijtimoiy tarmoqning o'z foydalanuvchisi borligini unutmaslik kerak. Misol qilib aytishimiz mumkin-ki, Facebook keng keng yosh oralig'idagi foydalanuvchilariga, Instagram asosan talabalar va yoshlar auditoriyasiga ega, telegram tezkor e'lonlar va yangiliklar uchun mo'ljallangan tarmoq hisoblanadi. Shu bois kutubxona mutaxassislar har bir ijtimoiy tarmoq uchun alohida strategiya ishlab chiqishi zarur. Yuqoridagi g'oya va rejalarga saoslangan holda tartibli va muntazam joylab borish yuritish kutubxonachidan ham yetarli malaka va ko'nikmani talab etadi. Kutubxonada zamonaviy axborot vositalaridan foydalana olgan, marketing va dizayndan xabardor kutubxonachilar o'z foydalanuvchilari bilan ishlashga, ijtimoiy tarmoqlarda erkin va samarali faoliyat olib borishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Shuni ham aytish kerak-ki, adabiy kechalar, shoir va yozuvchilar bilan davra suhbatlari, kitob taqdimotlari ham kitobxonlarga o'zgacha ruh bog'ishlaydi. Har hafta biror yozuvchi hayoti, ijodi yoki ma'lum kitobni tanlab qisqacha mazmunini yoritish ham keng va samarali qo'llanilishi lozim bo'lgan ishlardan biri. Yuqoridagi targ'ibot va zamonaviy g'oyaning asosiy maqsadi kutubxonaning ijtimoiy tarmoqda ham foydalanuvchilarini yig'ish. O'quvchilar, talabalar va keng jamoatchilik orasida kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib qilish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda kutubxonalarning ijtimoiy tarmoqlarda faolligini oshirish, yoshlarni kitobxonlikka jalb etadi. Madaniyat va ma'rifat targ'ibotida muhim va samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, jamiyatda mutolaa madaniyatini rivojlantirishda yetakchi kuchga aylanadi. Demak kutubxona va kutubxonachi nafaqat kitob ulashuvchi, balki jadallik bilan rivojlanib borayotgan dunyoda bilim va ma'rifat tarqatuvchisi sifatida tayanch vazifani bajaradi. Yaqin yillarda har bir kutubxona o'zining raqamli kontent markaziga ega bo'lishi, foydalanuvchilar esa kutubxona va tarmoq sahifalaridan o'zlariga zarur, ishonchli axborotni tez va oson topishlari mumkin bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar davrida kutubxonalar ham yangicha yondashuvlar bilan ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish orqali kutubxonalar o'z faoliyatini keng jamoatchilikka yetkazish, yangi kitobxonlarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa yoshlar orasida mutolaa madaniyatining shakllanishiga va kitobga bo'lgan qiziqishning ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday faoliyat jamiyatda ma'naviy muhitni mustahkamlashga ham katta hissa qo'shadi. Kutubxonalar nafaqat bilim maskani, balki zamonaviy axborot markazi sifatida ham rivojlanib borishi zarur. Buning uchun kutubxonachilar o'z ustida muntazam ishlashi, yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surishi muhimdir. Ana shundagina kutubxonalar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi maskan sifatida o'z ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

